



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

27.04.2022 yil

74 um-son

O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalarida faoliyat yurituvchi xotin-qizlar o‘rtasida “Adliya ayoli” tanlovini tashkil etish to‘g‘risida

Adliya organlari va muassasalarida faoliyat yurituvchi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish hamda faoliyatda tashabbuskorlik va yuqori natijalarga erishishga intilish samaradorligini oshirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Adliya organlari va muassasalarida faoliyat yurituvchi xotin-qizlar o‘rtasida “Adliya ayoli” nomli tanlov tashkil etilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya organlari va muassasalarida “Adliya ayoli” tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Adliya organlari va muassasalari rahbarlari o‘z tizimida faoliyat yurituvchi xotin-qizlar o‘rtasida “Adliya ayoli” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) mazkur buyruq talablari asosida tashkil etilishini ta‘minlasin.

Adliya organlari va muassasalari rahbarlari, Huquqiy targ‘ibot va ma‘rifat boshqarmasi (Sh. Yuldasheva), Inson resurslari boshqarmasi (Sh. Kuchkarov), Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (J.Uzakov) tashkil qilinadigan tanlov shaffoflik, tenglik, xolislik va kollegiallik

tamoyillari asosida o'tkazilishini ta'minlasin.

4. Belgilansinki:

Tanlovning respublika bosqichini o'tkazish, shu jumladan respublika bosqichi o'tkaziladigan joyni bezatish, ishtirokchilarning yashashi, ovqatlanishi, bayram dasturxonini tashkil etish va respublika bosqichi sovrindorlarini moddiy rag'batlantirish bilan bog'liq sarf-xarajatlar byudjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, homiylar va qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan;

ishtirokchilarning tanlovning respublika bosqichida ishtiroki uchun kelib-ketishi bilan bog'liq sarf-xarajatlari adliya organlari va muassasalarining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari (RJ) hisobidan qoplansin.

5. Moliya-iqtisod boshqarmasi (T. Bekbutayev) byudjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, homiylar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan mazkur buyruqning 4-band 1-xatboshida nazarda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirilishini ta'minlansin.

6. Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi (A. Buriyev) ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari M. Ikramov zimmasiga yuklansin.

Adliya vaziri



R.DAVLETOV

Toshkent shahar

**O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari
va muassasalarida “Adliya ayoli” tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom adliya organlari va muassasalarida faoliyat yurituvchi xotin-qizlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan “Adliya ayoli” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovni o‘tkazishdan asosiy maqsad adliya organlari va muassasalarida faoliyat yurituvchi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish hamda faoliyatda tashabbuskorlik va yuqori natijalarga erishishga intilish samaradorligini oshirishdan iborat.

3. Tanlov har yili qoida tariqasida avgust oyida shaffoflik, tenglik, xolislik va kollegiallik tamoyillari asosida o‘tkaziladi.

4. Tanlovda barcha adliya organlari va muassasalarida faoliyat yurituvchi xotin-qizlar faqat yakka tartibda ishtirok etishi mumkin. Tanlovda Adliya vazirligi markaziy apparati xodimlari ishtirok etmaydi.

II bob. Tanlovni tashkillashtirish

5. Tanlovni o‘tkazishni tashkil etish uchun adliya vazirining o‘rinbosari boshchilik qiladigan tashkiliy qo‘mita shakllantiriladi.

6. Tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlovni o‘tkazish muddatlari, joyi, hakamlar hay‘atini shakllantirish, taqdirlash marosimini o‘tkazish tartibini belgilash hamda tanlov bilan bog‘liq boshqa turdagi tashkiliy-huquqiy masalalar hal etiladi.

7. Tanlov quyidagi ikki bosqichda o‘tkaziladi:

- dastlabki (saralash) bosqich;
- final bosqichi.

8. Tanlovning dastlabki bosqichi quyidagi adliya organlari va muassasalarida bo‘lib o‘tadi:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari;
- Huquqiy siyosat tadqiqot instituti;
- X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi;
- “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi;

- “Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat muassasasi;
- “Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi” davlat muassasasi;
- “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasi;
- Yuristlar malakasini oshirish markazi;
- Toshkent davlat yuridik universiteti.

9. Tuman (shahar) adliya bo‘limlari, yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari, FXDYO organlari, yuridik texnikumlar, akademik litsey, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining hududiy tuzilmalari, davlat notarial idoralari va arxivlari xodimlari hududiy adliya boshqarmalari kesimida ishtirok etadi.

10. Tanlovning dastlabki bosqichini o‘tkazishni tashkil etish uchun hududiy adliya organi yoki muassasa rahbarining o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruhi shakllantiriladi. Tanlovning dastlabki bosqichi har yili avgust oyining 1-15 sanalari oralig‘ida o‘tkaziladi.

11. Tanlovning dastlabki bosqichida 1-o‘rin sohibi bo‘lgan ishtirokchi tanlovning final bosqichida ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

12. Tanlovning respublika bosqichi har yili avgust oyining 15-31 sanalari oralig‘ida o‘tkaziladi.

13. Tanlovning respublika bosqichida hakamlar hay‘ati ishtirokchilarning natijalarini hisobga olgan holda 1, 2 va 3-o‘rinlarni aniqlaydi hamda tanlov g‘oliblarini e‘lon qiladi.

14. Hakamlar hay‘ati tomonidan boshqa faol ishtirokchilar muqobil nominatsiyalar bilan taqdirlanishi mumkin.

Shu jumladan, huquqshunoslik sohasida fidokorona mehnat qilayotgan, huquqshunoslik faoliyatini vijdonan amalga oshirayotgan, vatanparvarlik fazilatlarini bilan el-yurt o‘rtasida hurmat qozongan, faol, tashabbuskor, soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan yurist ayollar “Akademik X. Sulaymonova izdoshi” nominatsiyasi bilan taqdirlanishi mumkin.

III bob. Tanlovni o‘tkazish shartlari va mezonlari

15. Tanlovning dastlabki bosqichida ishtirokchilar uchta shart bo‘yicha bellashadilar:

birinchi shartda ishtirokchilarga bilim va tajribalarini sinovdan o‘tkazish maqsadida huquqiy mavzulardan shakllantirilgan 30 ta test savollari taqdim etiladi. Test savollarini bajarish uchun o‘ttiz daqiqa vaqt ajratiladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun bir ball beriladi;

ikkinchi shartda ishtirokchilar qonunchilikka oid dolzarb bitta taklif taqdim etadilar. Har bir ishtirokchiga besh daqiqa vaqt ajratiladi. Hakamlar hay'ati ishtirokchi tomonidan ko'tarilayotgan muammoning dolzarbligi, berilayotgan taklif muammoni hal etish uchun maqsadga muvofiq yechim ekanligi hamda yangiligiga ko'ra baholanadi;

uchinchi shartda ishtirokchilarning uy yumushlaridagi bekalik qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. Ishtirokchilarning barchasiga bir xil turdagi vazifani (*jumladan, xamir yoyish, chuchvara tugish, biror bir taom tayyorlash*) bajarish topshiriladi. Ishchi guruh bajarilishi lozim bo'lgan shartni belgilaydi. Hakamlar hay'ati berilgan vazifaning turiga muvofiq ishtirokchilarni shartni qisqa muddatlarda hamda sifatli bajarilishiga ko'ra baholaydi.

16. Tanlovning final bosqichida ishtirokchilar beshta shart bo'yicha bellashadilar:

birinchi shartda ishtirokchilar "Men haqimda" deb nomlangan taqdimot qiladilar. Bunda ishtirokchi o'zining shaxsiy hayoti, ma'lumoti, qiziqishlari, ishdagi yutuqlari, kitobxonlik salohiyati va boshqa qobiliyatlarini taqdimot orqali yoritib beradilar. Har bir ishtirokchiga uch daqiqa vaqt ajratiladi. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilar qo'lga kiritgan yutuqlari, taqdimot qilish qobiliyati, notiqlik mahoratiga ko'ra baholanadi;

ikkinchi shartda ishtirokchilar qonunchilikka oid dolzarb bitta taklif taqdim etadilar. Har bir ishtirokchiga besh daqiqa vaqt ajratiladi. Hakamlar hay'ati ishtirokchi tomonidan ko'tarilayotgan muammoning dolzarbligi, berilayotgan taklif muammoni hal etish uchun maqsadga muvofiq yechim ekanligi hamda yangiligiga ko'ra baholanadi;

uchinchi shartda ishtirokchilar kundalik turmushda uchraydigan muammoli vaziyat (kazus)ga huquqiy tushuntirish beradilar. Ishtirokchi muammoli vaziyatni, qoida tariqasida, generatsiya tizimi orqali tasodifiy tanlaydi. Har bir ishtirokchiga o'ylash uchun bir daqiqa hamda javob berish uchun uch daqiqa vaqt ajratiladi. Hakamlar hay'ati ishtirokchining muammoli vaziyatga to'g'ri va to'liq huquqiy tushuntirish bera olish qobiliyatiga ko'ra baholaydi;

to'rtinchi shartda ishtirokchilarning uy yumushlaridagi bekalik qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. Ishtirokchilarning barchasiga bir xil turdagi vazifani (*jumladan xamir yoyish, chuchvara tugish, biror bir taom tayyorlash*) bajarish topshiriladi. Tashkiliy qo'mita (ishchi guruh) bajarilishi lozim bo'lgan shartni belgilaydi. Hakamlar hay'ati berilgan vazifaning turiga muvofiq ishtirokchilarni shartni qisqa muddatlarda hamda sifatli bajarilishiga ko'ra baholaydi;

beshinch shart erkin shart hisoblanadi. Ishtirokchilar ijodiy va intellektual salohiyatini namoyish etadi (*raqs tushish, qo'shiq aytish, spektakldan parcha ijro etish, sport turidan ko'rgazmali chiqish kabi*). Har bir ishtirokchiga uch daqiqa vaqt ajratiladi. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilarning ijodiy va intellektual qobiliyati baholanadi.

IV bob. Tanlov gʻoliblarini aniqlash tartibi

17. Tanlovda ishtirokchilarning bilim va mahoratlarini baholash uchun hakamlar hay'ati raisi va 4 nafar a'zodan iborat (*jami 5 nafar*) tarkibda hakamlar hay'ati shakllantiriladi.

18. Hakamlar hay'ati tarkibi adliya organlari xodimlaridan hamda ilm-fan va madaniyat sohasida yuqori natijalarga erishgan, yuqori tajribaga ega bo'lgan boshqa soha vakillari orasidan tanlab olinadi.

19. Ishtirokchilarning har bir shart bo'yicha chiqishlari hakamlar hay'ati har bir a'zosi tomonidan alohida tarzda 10 ballik mezon asosida baholanadi.

20. Tanlovda ishtirokchilarning baholari teng kelib qolgan holatda ular o'rtasida savol-javob o'tkaziladi. Savollar huquqning boshlang'ich bilimlari, ijtimoiy va siyosiy sohalar bo'yicha tuziladi.

V bob. Yakuniy qoidalar

21. Tanlov natijasi va uning gʻolibi haqidagi ma'lumot Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

22. Tanlov gʻolibi "Adliya ayoli" deb e'tirof etiladi hamda gʻolibga maxsus sovrin, 2 va 3-o'rin gʻoliblariga esdalik sovg'alar tantanali ravishda topshiriladi.

23. Tashkiliy qo'mita qarori barcha hududiy adliya organlari va muassasalariga yetkaziladi.